



# ГЕОГРАФИЯ, ТУПРОҚШУНОСЛИК ВА ЭКОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*Илмий-амалий  
анжуман  
материаллари*

Самарқанд-2018

айланди. Табиий ва иктисадий география бу тизимнинг энг катта икки қисмини ҳосил қилди[2].

### Адабиётлар

1. Зокиров Ш.С., Тошов Х.Р. География тарихи. Бухоро. “Дурдона” нашриёти. 2015, 182 б.
2. Зокиров Ш.С., Тошов Х.Р. География тарихи. Бухоро. “Дурдона” нашриёти. 2018, 216 б.

Ramatullayev A., Djumaboyev T., Adilova O.A.

*Samargand davlat universiteti – Jizzax davlat pedagogika instituti*

## G'OBIN TO'GI TABIATIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI TABIIY VA ANTROPOGEN OMILLAR

Hududlardagi chollanish jarayoniga va tabiatning shakllanishiga ikkita omillar guruhi ta'sir ko'rsatadi: 1.Tabiyy omillar. 2.Antropogen omillar. Tabiiy omillarga yog'in miqdorining kamligi, haroratning yuqoriligi, shamolli kunlarning ko'pligi va kuchli shamollarning tez-tez takrorlanib turishi kabilar kiradi. Antropogen omillarga inson xo'jali faolyatining va kishilarning bevosita ta'sirlari kiradi. Tabiiy omillardan yog'in miqdori va uning yil davomida taqsimlanishi katta rol o'ynaydi. G'obdin tog'I atroflarida yiliga 300 mm dan ko'p miqdorda yog'in tushadi. Bu ma'lumotlar to'g'ga yaqin joylshgan G'allarol (347 mm), Milyutinskaya (hozirgi Lalmikor, 327 mm) meteostansiyalaridan olindi. Tog'ning yuqori qismlariga 400 mm atrofida yog'in tushadi. Bu ko'rsatkich yomon emas, chunki, Samargand shahrida o'rtacha ko'p yillik yog'in miqdori 328 mm. Yog'in asosan bahor va qish oylarida yog'adi, iyun, iyul, avgust va sentyabr oylarida deyali yog'in bo'lmaydi. Shu sababli ham to'rt oy davom etadigan yog'insiz issiq davrlarda efemer va efemeroit o'simliklar qovjirab qoladi, faqat ko'p yillik buta va yarim butalar (qo'ziquloq, yantoq, shuvoq, moshkavak, na'matak va ba'zi boshqa o'simliklar) rivojlanishda davom etadi. Agarda ushbu yog'adigan bir qismi yozda ham yoqqanda edi, yoz oylari ham tog' yonbag'irlari yashil tusdagi o'simliklar bilan qoplangan bo'lар edi.

Yoz oylari haroratning balandligi ham o'simliklarning tez qovjirab qolishiga sharoit yaratadi. Yozgi mavsum, iyun, iyul, avgustda havoning o'rtacha harorati  $24-27^{\circ}\text{C}$  bo'lishi, maksimal haroratning esa  $39-41^{\circ}\text{C}$  ga ko'tarilishi kuzatiladi. Bunday issiq sharoitda ayrim o'simliklarning rivojlanishni davom ettiradi. Yog'in miqdorining kamligi, havo va tuproq haroratining yuqoriligiga shamol faoliyati ham qo'shiladi. Doim esadigan shamol tuproq qatlamini tez quritadi, o'simliklarning namni bug'lantiruvchanligini kuchaytiradi, yonbag'irlardagi qorlarni uchirib, chuqurliklarda top'lanishiga sabab bo'ladi. Issiq va quruq ob-havo sharoitida esadigan kuchli shamollar yonbag'irlardan tuproqlarni qum zarrachalarni uchirib ketadi, xatto o'simliklarni ham uchirib chuqurliklarga to'playdi. G'obdin tog'I atroflarida shamolli kunlar, ayniqsa, kuchli shamoillar ko'p takrorlanadi. Buni quyidagi jadvaldan ham ko'rish mumkin.

**Shamolning maksimal tezligi m/sek.( Balasheva va boshq.,1963)**

Stansiya	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
Bulung'ur	20	17	17	17	24	20	20	17	17	17	17	28
G'allarol	20	20	20	20	17	17	20	17	17	20	20	20
Lalmikor	20	20	20	20	20	17	20	20	20	20	20	20

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, ko'rsatilgan stansiyalarda shamolning maksimal tezligi 17 m/sek.dan 28 m/sek. ga qadar yetadi. Bunday tezlikdagi kuchli shamol qurigan tuproqlardagi chang va qumlarni oson ko'chiradi, daraxtlarning shoxlarini sindiradi, gurunt va tuproqdagi namlikni kuchli bug'lantiradi. Umuman G'obdin tog'ining sharqiy qismida Sangzor vodiysida shamol uzlusiz esadi. Bu shamolni mahalliy xalq "Ilon o'ti" yoki "Ilon o'tdi" shamoli deb atashadi. Kuzda va bahorda esadigan doimiy kuchli shamollar dehqonchilik ishlariga halaqt beradi, daraxt gullarini to'kadi, kuz va qish oylari uylarni sovitib yuboradi. Shu tufayli ham mahalliy xalq bu shamolni ilonning o'tiga oxshatadi [2].

Ancha kuchli shamollarning takrorlanishi ham hududda katta. Masalan, yanvar oyida Bulung'urda 38 % esadigan shamolning tezligi 3,9 m/sek.ni, aprel oyida 28 % esadigan shamol tezligi 4,1 m/sek., iyul oyida 45 % esadigan shamol tezligi 7,5 m/sek.ni va oktyabr oyida 48 % esadigan shamolning tezligi 4,9 m/sek.ni tashkil qiladi [1]. Ushbu raqamlar ham hududda kuchli shamollarning ko'p takrorlanishini, ayniqsa yoz oylari shamol tezligi oshishligini ko'rsatib turibdi. Cho'llanishni keltirib chiqaradigan antropogen omillar turlari ko'p. Bularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: 1) chorva mollarni boqish; 2) daraxt va utalarni kesish; 3) geologik qidiruv ishlari; 4) yo'l qurilishi ishlari; 5) qurilish uchun toshlarni kovlash; 6) dam olish uchun joylardan noto'g'ri foydalanish va boshq.

Bular ichida daraxt va butalarni o'tin uchun kesish va chorva mollarini tartibsiz boqish muhim rol' oynaydi. Aholi sonining ortishi bilan chorva mollari soni ham tez ko'pymoqda. Botanik mutaxasislar hisobi bo'yicha bitta qo'yni ochiq yaylovda boqish uchun yaylov mahsuldarligiga bog'liq holda 1,5 hektardan 2,0 hektar yaylov kerak bo'ladi. G'obdin tog'ida o'rtacha bitta qo'y yoki echki uchun o'rtacha 1,5 hektar yaylov yetarli hisoblanadi. Shu hisob bo'yicha 1000 ta qo'y-echkini bir yilda boqish uchun 1,5 ming hektar yaylov kerak bo'ladi. Hozirda esa bitta yirikroq qishloqda 3000 - 4000 bosh qo'y va echki, 500-600 bosh qoramol bor. Bularning yil davomida bir joyda boqilishini yaylov sig'imidan 5-10 barobar oshadi va tabiiy o'tlarning kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda, natijada cho'llanish o'choqlari yildan-yilga kengayib bormoqda. Daraxt va butalarning qirqib yuborilishi tabiat qashshoqlanishiga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Daraxt va butalarning kesilishi tufayli yer yuzasi ochilib qolmoqda, qor va yomg'ir suvlari yerga singmasdan oqib ketmoqda, bularning oqibatida tuproq yuvilishi kuchaymoqda, buloq suvlari kamaymoqda, soylar qurib qolmoqda. Bundan bir necha yuz yillar avval G'obdin tog'I qalin o'rmonlar bilan qoplangan bo'lgan. Demak, monitoring maydonchasidagi ekilgan archa, qayrag'och va bodomchalar, ularning yaxshi rivojlanayotganligi buning isboti. Bu uch turdag'i qurg'oqchilikga chidamli daraxt va butalar 2014 yil ekilgan edi. Ular

sug'orilmaydi, toshloq muhitda o'smoqda, besh yil davomida ularning boyi 1,5 metrдан oshdi. Ana shu ashovyiy dalil ham tog'larda daraxt va butalarning yo'qligi aholi tomonidan ularning qirqib yuborilishini isbotlab turibdi. Bu kuchli omillardan tashqari geologik qidiruv ishlar, turli qurilishlar, avtoulovlarning tog' yonbag'ri bo'ylab tartibsiz harakatlari, yo'l qurilishlari, toshlarni kavlab olishlar va boshqa inson faoliyatining ta'sirlari ham tog'lar tabiatining yanada yomonlashhubiga sabab bo'lmoqda.

### **Adabiyotlar**

- 1.Balasheva E.N., Jitomirskaya O.N., Karaulshikova N.N., Sabinina I.G., Klimaticheskoe opisaniye Zarafshanskogo rayona. -L., 1963. -118 s.
2. Paxmatullayev A., Shirinboyev D., Adilova O. G'obdin yaylovlarida cho'llanish jarayoning rivojlanish dinamikasi //Geografiya XXI asrda: muammolar, rivojlanish istiqbollari. –Samarqand, 2017. –B.105-107.

*Алимқулов Н.Р.*

*Тошкент давлат педагогика университети*

## **ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИДА АМАЛИЙ КЎНИКМА ВА МАЛАКАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ**

География таълимига хос бўлган амалий кўникма ва малакаларга қуидагилар киради: жойда мўлжал ола билиш, жой планини тузиш, топографик план ва турли мазмундаги географик карталарни ўқиш, табиятда ва жамиятда кузатиш, кузатиш материалларини ёзб бориш ва қайта ишлаш, статистик иқтисодий материаллар билан ишлаш ва х.к.

Кўникмаларни шакллантириш куйидаги босқичлардан иборат: кўникма аҳамиятини тушунтириш ва кўникма кўлланиладиган мањбалар билан танишиш; кўникма таркиби билан танишиш, бажариш ва мустаҳкамлаш учун машқлар ишлаб чиқиш; янги ўкув вазиятида кўникмани кўллаш учун ижодий топшириклар бериш кабилар.

Хар бир географик кўникмани шакллантириш мураккаб харакат тизимларини талаб қиласди. Одатда кўникма ва малакалар бир пайтнинг ўзида шакллантирилади. Чунки, амалий топширикларни бажаришда уларнинг айримлари онгли равишда, баъзилари бевосита, аммо онг назорати остида бажарилади. Масалан, топографик планни ўқиш кўникмаси ўз ичига йўналишларни аниқлаш, масштаб ёрдамида пландаги масофаларни ўлчаш топографик белгиларни ўқиш, жойда объектлар ўртасидаги алоқадорликни ўрнатиш кабиларни олади. Юқоридагилардан топографик белгиларни ишлатишни билишгина малака даражасини белгилайди. Об-хавони кузатиш кўникмаси деганда термометр, барометр, флюгер билан ишлаш кўз билан булутлар шакли ва турларини, об-хавонинг бошқа аломатларини аниқлаш тушинилади. Шулар ичida факат об-хаво ҳароратини аниқлаш ва барометр билан ишлаш малака даражасигача кўтарилади.

## МУНДАРИЖА

### КОНФЕРЕНЦИЯНИНГ ЯЛПИ ЙИФИЛИШИ

Саттаров Ж.С. Агрокимёнинг бугуни ва эртаси.....	3
Ҳикматов Ф.Х., Ҳайдаров С.А. Зарафшон дарёси оқимини иқлим ўзгаришининг турли сценариялари бўйича баҳолаш.....	6
Холиқулов Ш.Т., Ортиков Т.Қ. Ўзбекистон тупроқлари гумус ҳолати ва унга турли хил омилларнинг таъсири.....	10

### 1- СЕКЦИЯ: ТАБИЙ ГЕОГРАФИЯ ВА ТАБИЙ РЕСУРСЛАР

#### ҲАМДА ЭКОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Аббосов С.Б., Сабирова Н.Т. Шарқий Қизилқум чўл ландшафтларини шаклланишида тупроқлар копламишининг аҳамияти.....	15
Рахматуллаев А., Мамажанов Р.И., Баратов Х. Самарқанд вилоятининг шамол ресурслари картасини тузиш.....	17
Нигматов А.Н., Байқабилов Х.М. Жаҳон мамлакатларининг табиий географик даврий тизими.....	21
Мурадов Ш.О., Киличева Д.И., Мукаррамова Г.А. Разработка и внедрение модернизированных методов обучения предмета экология в небиологических направлениях ВУЗов.....	25
Abdullayev S.I., Nazarov M.G. Seliteb landshaftlarning geoekologik holatini o'rganish.....	29
Abdullayev S.I., Muqutova N.I. Geoekologiya geografik va ekologik bilimlar tizimida.....	32
Зокиров Ш.С., Тошов Х.Р. География тарихи монографиясининг янги нашри ҳўсусида.....	35
Ramatullayev A., DJumaboyev T., Adilova O.A. G'obdin to'gi tabiatiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy va antropogen omillar.....	39
Алимқулов Н.Р. География таълимида амалий кўнкимга ва малакаларни шакллантириш.....	41
Иzzутуллаев З.И., Боймуродов Х.Т. Ўзбекистон ҳудудида тарқалган куруқлик қориноёкли моллюскалари (mollusca, gastropoda, pulmonata)нинг тупрок зоналарида тарқалиши ва экологик гурухлари.....	44
Хайитов Ё.К. В перспективе использование водных растений в народном хозяйстве Бухарской области.....	46
Erdonov M., Ko'chkinova M. Surxondaryo viloyatining noyob tabiat yodgorliklari .....	48
Raxmatov Yu., Tursinova U. «Afrika materigi» mavzusini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati.....	51
Рафиқова Н.А. Табиятдан фойдаланишининг оптималлаштириш мезонлари	54
Эшқувватов Б. Ландшафт-экологик таҳлилда географик ахборот тизимининг роли.....	57
Ҳакимов О.Н. Кўйи Амударё табиий географик ўлкасидаги чўлланиш жараёни ва уни ўқитишида географиянинг анъанавий услублари.....	59